MAKTABLARDA ADABIYOT DARSLARIDA SHOIRLAR IJODINI O‘RGANISH VA O‘RGATISH MASALALARI

Shahrisabz davlat pedagogika instituti O`zbek tili va adabiyoti yo`nalishi 2-kurs talabasi
Nuraliyeva Sitora Islombek qizi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada adabiyot va uning yoshlar ongiga ta'siri, Umumta'lim maktablarida adabiyot fanini o‘qitish jarayonida shoirlar ijodini o‘rganish va o‘rgatish masalalari ilmiy tarzda yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar. *Adabiyot, so‘z, shoirlar ijodi, adib, she'riyat, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov.*

Adabiyot insonning ma’naviy dunyosini shakllantirish va axloqiy qiyofasini belgilashda eng samarali ta’sir ko‘rsatuvchi san’at turidir.Adabiyot– xalq mulki. U inson hayotida alohida ahamiyatga ega. Inson bor ekan, adabiyot ham bo'ladi. Adabiyotning o'lmasligini ta'minlovchi ikkita qudratli omil bor. Ularning biri adabiyotning g'oyat buyuk tarbiyaviy-ma'rifiy ahamiyati bo'lsa ikkinchisi, uning insonlarga zavq-shavq berish xususiyatiga egaligidir. Zero, inson har qanday davrda, har qanday sharoitda ham busiz yasholmaydi: u doimo tarbiyaga, doimo ma'rifatga va badiiy zavq olishga muhtoj. Ayniqsa, shoirlar ijodini o‘rganish jarayoni o‘quvchilarda so‘z san’ati, go‘zallik va ma’naviy qadriyatlarga muhabbatni uyg‘otadi. Shoirlar asarlari orqali o‘quvchi xalq tarixini, milliy o‘zlikni, insoniylik va vatanparvarlik tuyg‘ularini chuqurroq anglaydi. Shu bois maktabda adabiyot darslarida shoirlar ijodini samarali o‘rgatish o‘qituvchidan ijodkorlik, mahorat va zamonaviy yondashuvni talab etadi.

Mustaqillik davrida adabiyotga, ayniqsa so‘zga alohida e’tibor berildi, chunki so‘z millatning ruhi, tafakkuri va ma’naviyatining eng muhim ifodasi sifatida qadrlana boshlandi. Ko‘p qirrali hayotning hech bir muhim voqea-hodisasi yo‘qki, u adabiyotimizda o‘z ifodasini topmagan bo‘lsa.Adabiyot darsliklarini o‘tishda avvalambor, “Adabiyot o‘qitish metodikasi” dan foydalanib darslarni olib borsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. “Adabiyot o'qitish metodikasi fanining maqsadi bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentliligini shakllantirish, ularga yoshlar ma'naviyatini qaror toptirishda badiiy asarning ta'sir kuchidan oqilona va samarali foydalanish yo'llarini o'rgatishdan iborat”[1] Adabiyot insonning ich- ichigacha kirib boradi. Uni o‘qigan har bir insonga katta yoki kichik bo‘lsin birdek ta'sir qiladi hamda ma'naviy ozuqa beradi. Insonning dunyoqarashini oshiradi. O‘z navbatida o‘qituvchilar

[1] Husanboyeva.Q, Niyozmetova.R. Adabiyot o`qitish metodikasi. Toshkent-2018. 8-bet

o‘quvchilarga adabiyot darsliklarida adiblar hayoti va ijodi bilan birgalikda mashhur shoirlar ijodini ularning so‘z qo‘llash mahoratini ham o‘tishadi. “Adabiyot darslarida o'qituvchi hokim emas, balki hamkor bo'lishi kerak. Bilimlarni o'zlashtirish va tarbiyalanish o'qituvchi-o'quvchi hamkorligida o'quvchining o'zi tomonidan amalga oshiriladi.O'qituvchi zarur bo'lib qolganda, o'z munosabatini katta yoshli va tajribali hamkor sifatida bildirishi, o'quvchilarning fikr aytishiga imkon berishi, ularda munosabat uyg'otishi kerak.Dars jarayoni subyektlarning birgalikdagi faoliyatiga aylanishi lozim.”[2] Bugungi o‘qituvchilar bundan o‘n–o‘n besh yil oldin ishlagan o‘qituvchilardan o‘zlarining dunyoqarashi va madaniyatlarining yuqoriligi bilan farq qiladi. O‘z navbatida ota-onalar ham farzandlarini mahoratli o‘qituvchilar qo‘liga topshirishga harakat qiladilar. O‘qituvchini bilib, surishtirib uning kasbiy mahoratiga qarab bolalarini o‘qitishga berishadi. Bunday o‘qituvchilardan ota-onalarning ko‘ngli to‘q bo‘ladi. Masalan, bola she'rga, she'riyatga qiziqsa uni shu yo‘nalish bo‘yicha yo‘naltirib yuborish kerak. O‘zbek shoir va shoiralarining ijodini u tushunadigan qilib, mahorat bilan tushuntirib berish lozim. Bu o‘qituvchidan anchagina mehnat va malakani talab qiladi. Masalan, Alisher Navoiyning asarlari orqali o‘quvchilar milliy til, adolat va ma’naviyatning yuksak namunalarini o‘rganadilar; Abdulla Oripov yoki Erkin Vohidov she’rlari esa zamonaviy inson ruhiyatini, vatanparvarlik tuyg‘usini yoritadi.

Mashhur adib O‘zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston qahramoni bo‘lgan Abdulla Oripov–tug‘ma iste'dod egasidir. U–juda siyrak uchraydigan noyob, nodir shoir desak adashmaymiz. Adib yoshligidan adabiyotga katta mas'uliyat bilan qaradi. Abdulla Oripov she'riyatga hech qachon ermak deb qaramaydi. Uni doimo vijdon ishi deb biladi. Shuning uchun ham shoir asarga jilo va sayqal berishdan aslo erinmaydi. Uning quyidagi she’rida samimiy ixlos va mamnuniyat barq urib turadi:

Boshin egar hamisha
Ostonangda Abdullo.
Eng oliy baxtim mening,
Onajonim, she'riyat.
Topgan toj-taxtim mening.
Jonajonim, she 'riyat.

Abdulla Oripov shoir sifatida asardan asarga o‘sib, tezda ijodiy kamolotga erishdi. Natijada she'riyatimiz xazinasiga yil sayin tobora ko'proq va qimmatliroq hissa qo'shib bordi.

“Abdulla Oripov Vatan tuyg'usining eng muqaddas va eng bebaho qadriyat ekanini rang-barang shakllarda dil-dildan kuylaydi. Shoir “Ishonch ko'priklari” kitobida Vatan va ona haqida teran badiiy umumlashma yaratgan. Har bir insonning

[2] Husanboyeva.Q, Niyozmetova.R. Adabiyot o`qitish metodikasi.Toshkent-2018.62-bet

dunyoda onasi bitta bo'lgani singari Vatani ham bittadir, degan fikrni samimiyat bilan ifodalagan:

Bisvor bo'lsa agar bol ham beqadr.
Takror aytilganda rangsizdir kalom.
Bu yorug' olamda Vatan bittadir.
Bittadir dunyoda ona degan nom.

Abdulla Oripovning asosiy tasvir obyekti–O‘zbekiston, asosiy qahramoni esa mehnatkash o‘zbek xalqidir. Shoirning o‘zi bu haqiqatni: “Men kuylayman bu olam aro, mag‘rur turgan xalqimni faqat”,–deb qayd etgan edi.”[3] Abdulla Oripov fikrlar va ehtiroslar shoiridir. Uning ijod qamrovi keng, fikri teran, badiiy mushohadalari kuchli, ehtirosi jo'shqin, parvozi yuksak. She'rlarida loqaydlik bo'lmaganligi, jo'shqinligi va lirik tuyg'ularga boyligi bilan o'quvchilarni maftun etadi, rom qiladi.

Yana bir noyob iste'dod egasi bo‘lgan adibimiz Erkin Vohidov hisoblanadi. Shu bilan birga u she'riyatimizning porloq yulduzi va taniqli jamoat arbobi hamdir.Erkin Vohidov dastlabki she'rlaridayoq badiiy mahoratga, asar sifatiga alohida e'tibor berdi va juda yaxshi natijalarga erishdi. “Erkin Vohidov o'z she'riyatida inson, mehnat, vatan, yoshlik, do'stlik, poklik, halollik, to'g'rilik, muhabbat, sadoqat samimiylik va go'zallik singari abadiy dolzarb mavzularni lirika torlariga solib o'ziga xos yoqimli va ravon uslubda kuylaydi Masalan, “Go'zallik” she'rida mehnat olamnigina emas, balki odamning o'zini ham o'zgartiradi: go'zal va ko'rkam qiladi, degan g'oya ustalik bilan ifodalangan:

Mulki borliq ichra bir mahal,
Ko'rksizgina olam yaralgan.
Bermoq uchun dunyoga sayqal
Olam aro odam yaralgan.
Shundan beri inson tinmayin
Shu yer uzra ter to‘kar hamon,
Yerni go'zal qilgani sayin
Go'zal bo'lar o'zi ham inson.

Erkin Vohidov zamonamizning rang-barang mavzularını yoritishda barmoq vazni qulayliklaridan ham, aruz vazni imkoniyatlaridan ham birdek mahorat bilan foydalanadi.”[4] Erkin Vohidov o‘z asarlarida mavhum, jimjimador va topishmoqnoma misralar ishlatmaydi. Chuqur mazmunli fikrlarni sodda, xalqchil va obrazli qilib ifodalaydi.Shoir hamma vaqt so‘z va iboralarni o‘z o‘rnida, ortiqcha isrof qilmasdan nihoyatda tejab ishlatadi.

[3] Mirzayev.S. XX asr o`zbek adabiyoti.-Toshkent: “Yangi asr avlodi” 2005
[4] Mirzayev.S. XX asr o’zbek adabiyoti.-Toshkent: “Yangi asr avlodi” 2005

Biz bu ikkala shoirni ham ko‘pqirrali, serjilo va tug‘ma talant egasi deb bemalol ayta olishimiz mumkin. Ular yaratgan ijod namunalari asrlar osha yosh avlodlarga namuna va o‘rnak maktabi bo‘lib xizmat qilsa ajab emas.

Maktablarda adabiyot darslarida shoirlar ijodini o‘rganish va o‘rgatish jarayoni o‘quvchilarda milliy ong, estetik did, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shoirlar asarlarini tahlil qilish orqali o‘quvchilar so‘zning badiiy qudrati, ma’no teranligi va obrazlilikni anglaydilar. Bu esa ularning ijodiy fikrlashini, nutq madaniyatini va mustaqil tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Adabiyot darslarida shoirlar ijodini o‘rgatishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar-interfaol metodlar, muammoli tahlil, rolli o‘yin, loyihaviy ishlar kabi usullarni qo‘llash o‘quvchilarning faolligini oshiradi va dars samaradorligini ta’minlaydi. Shoirlar ijodini o‘rganish nafaqat badiiy-estetik tarbiya vositasi, balki vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy qadriyatlarni singdirish yo‘lida ham muhim omil hisoblanadi. Shu bois adabiyot darslarida shoirlar asarlarini o‘qitish integrativ, tizimli va hayotiy yondashuvlar asosida tashkil etilishi zarur. Adabiyot o‘qituvchisi dars jarayonida shunchaki ma’lumot beruvchi emas, balki ruhiy tarbiyachi va badiiy tafakkur yo‘lboshchisi bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Husanboyeva.Q, Niyozmetova.R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Toshkent-2018
2. Mirzayev. S. XX asr o‘zbek adabiyoti. -Toshkent: "Yangi asr avlodi" 2005
3. To‘ychiyeva. M. Adabiyot darslarida didaktik vositalar: tanlov o‘lchovlari, qo‘llash usullari. "Fan va ta'lim "nashriyoti. Toshkent-2023
4. Usmonov. M. " Darsliklar bilan ishlash metodikasi" fani bo‘yicha, o‘quv uslubiy majmua. Namangan-2024
5. https://soff.uz
6. https://www.researchgate.net